



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES



SPAIN CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND
INNOVATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024




INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION: a collection scientific works of the International scientific conference – Madrid, Spain, 2026, Issue 3.

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION**». Which took place in Spain, 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



Talabalar mustaqil ta'limini takomillashtirishda WordWall interaktiv dasturdan foydalanish imkoniyatlari

Nosirova Dilnoza Toir qizi(dilnoza.n92@gmail.com)

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Sodiqova Ozoda Sohibjon qizi(sodiqovaozoda53@gmail.com)

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Aniq fanlar fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalar mustaqil ta'limini takomillashtirishda zamonaviy raqamli ta'lim vositalaridan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Xususan, Wordwall interaktiv platformasining didaktik imkoniyatlari, uning ta'lim jarayonida qo'llanilish afzalliklari hamda talabalar bilimini mustaqil ravishda oshirishdagi roli tahlil qilingan. Tadqiqot davomida interaktiv topshiriqlar, o'yin elementlari (gamification) asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarning talabalarning o'quv faolligi, motivatsiyasi va mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'siri aniqlangan. Shuningdek, maqolada Wordwall platformasidan foydalanish orqali ta'lim jarayonini individuallashtirish, tezkor baholashni amalga oshirish hamda talabalarning bilim darajasini monitoring qilish imkoniyatlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, interaktiv raqamli vositalardan foydalanish talabalar mustaqil ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, interaktiv platformalar, Wordwall platformasi va unda interaktiv o'yinlarni yaratish, Wordwall platformasida talabalarning bilim darajasini nazorat qilish, Wordwall platformasidan foydalanish samaradorligi

Annotation. This article highlights the issues of effective use of modern digital educational tools in improving students' independent learning. In particular, the didactic possibilities of the interactive platform Wordwall, the advantages of its use in the educational process, and its role in the independent improvement of students' knowledge were analyzed. In the course of the study, the positive influence of classes organized on the basis of interactive tasks, game elements (gamification) on the development of students' learning activity, motivation, and independent work skills was revealed. The article also substantiates the possibilities of individualizing the educational process, implementing rapid assessment, and monitoring the level of students' knowledge through the use of the Wordwall platform. The research results show that the use of interactive digital tools is one of the important factors in increasing the effectiveness of students' independent learning.

Keywords: digital technologies, interactive platforms, the Wordwall platform and the creation of interactive games on it, monitoring the level of students' knowledge on the Wordwall platform, effectiveness of using the Wordwall platform

Hozirgi kunda oliy ta'lim tizimida ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, talabalarning mustaqil fikrlashi va bilimlarni mustaqil egallash ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Kredit-modul tizimiga asoslangan ta'lim modelida talabalarning mustaqil ta'limi o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Ushbu tizimda talabalarning auditoriya mashg'ulotlaridan

tashqari mustaqil ishlashga ajratiladigan vaqt ulushi sezilarli darajada katta bo'lib, ularning bilimni mustaqil izlash, tahlil qilish va amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishni talab etadi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar va interaktiv platformalardan foydalanish talabalarning o'quv faoliyatini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, interaktiv o'quv platformalari talabalarning qiziqishini oshiradi, ularning bilimlarni mustaqil o'zlashtirish jarayonini faollashtiradi hamda o'z-o'zini nazorat qilish imkoniyatlarini yaratadi.

Shu nuqtai nazardan, Wordwall interaktiv platformasi talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishda samarali vositalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada Wordwall platformasining imkoniyatlari, undan foydalanish metodikasi hamda talabalar mustaqil ta'limini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Wordwall — bu o'qituvchilar va talabalar uchun interaktiv ta'lim materiallarini yaratish imkonini beruvchi onlayn platforma hisoblanadi. Ushbu platforma orqali turli xil o'yinli mashqlar, testlar, moslashtirish topshiriqlari va boshqa interaktiv faoliyatlarni yaratish mumkin. Wordwall platformasining asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, u ta'lim jarayonini o'yin elementlari bilan boyitadi. Gamifikatsiya elementlari o'quv jarayoniga kiritilganda talabalarning faolligi ortadi, bilimlarni o'zlashtirish jarayoni esa yanada qiziqarli va samarali bo'ladi.

Wordwall platformasi quyidagi imkoniyatlarga ega:

- interaktiv testlar yaratish;
- moslashtirish (matching) topshiriqlari;
- viktorina va savol-javob mashqlari;
- tasodifiy tanlash g'ildiragi (random wheel);
- so'z topish mashqlari;
- anagramma topshiriqlari.

Mazkur platforma yordamida o'qituvchi o'quv materiallarini interaktiv shaklda taqdim etishi mumkin. Bu esa talabalarni mustaqil ishlashga undaydi hamda bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishda Wordwall platformasidan foydalanish bir qator pedagogik afzalliklarga ega. Birinchidan, talabalar topshiriqlarni mustaqil ravishda bajarish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ikkinchidan, platforma natijalarni avtomatik tarzda baholaydi, bu esa o'z-o'zini nazorat qilish imkoniyatini yaratadi. Uchinchidan, interaktiv topshiriqlar talabalarning qiziqishini oshiradi va ularning motivatsiyasini kuchaytiradi.

Matematika fanini o'qitishda ham Wordwall platformasidan samarali foydalanish mumkin. Masalan, algebra kursida formulalarni moslashtirish, tenglamalar yechimlarini topish yoki matematik tushunchalarni to'g'ri ta'riflar bilan bog'lash kabi topshiriqlar yaratish mumkin. Geometriya fanida esa shakllar, teoremlar va formulalar o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlashga qaratilgan mashqlarni ishlab chiqish mumkin. Shuningdek, Wordwall platformasi talabalarning bilim darajasini nazorat qilishda ham muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Platformada yaratilgan test va mashqlarni talabalar

mustaqil bajarishlari mumkin. Natijalar esa darhol ko'rinadi, bu esa o'z xatolarini tahlil qilish va ularni tuzatish imkoniyatini beradi.

Wordwall platformasidan foydalanish samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba mashg'ulotlari tashkil etilishi mumkin. Tajriba jarayonida talabalarga Wordwall platformasi orqali interaktiv topshiriqlar beriladi va ularning natijalari an'anaviy usuldagi topshiriqlar bilan taqqoslanadi. Tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, interaktiv topshiriqlar orqali tashkil etilgan mustaqil ta'lim jarayonida talabalarining faolligi ortadi. Talabalar topshiriqlarni bajarishga ko'proq qiziqish bildiradilar hamda bilimlarni mustaqil ravishda mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bundan tashqari, Wordwall platformasi o'qituvchiga ham qulaylik yaratadi. Chunki platforma yordamida yaratilgan topshiriqlarni qayta-qayta foydalanish mumkin. Shuningdek, topshiriqlarni onlayn tarzda talabalar bilan ulashish imkoniyati mavjud.

Wordwall'da interaktiv mashqlar qanday yaratiladi?

Masofaviy va aralash darslar uchun shablonlarning katta to'plamiga ega konstruktor-servis haqida so'z yurutamiz. Unda bepul tarif ham mavjud.


Wordwalldan masofaviy va aralash ta'limda turli xil faoliyatlar uchun foydalanish mumkin. Xizmat xorijiy, biroq uning interfeysi to'liq o'zbek tiliga tarjima qilingan. Bu yerda krossvordlar va viktorinalardan tortib flesh-kartochkalargacha, bo'sh joylarni to'ldirish va "Juftini top" kabi interaktiv mashqlar uchun turli xil shablonlar to'plami mavjud. Shuningdek, Wordwall turli fanlar bo'yicha tayyor mashqlarning butun kutubxonasini yaratgan foydalanuvchilarning faol hamjamiyatiga ega (ular turli tillarda, rus tilida ham mavjud). Ulardan darhol yoki tahrirdan so'ng o'z o'quvchilari bilan foydalanish mumkin.

Xizmatning bazaviy tarifi mutlaqo bepul. Bundan tashqari, akkaunt ochmasdan ham "Hamjamiyat" sahifasiga o'tib, boshqa foydalanuvchilar tomonidan yaratilgan mashqlar orasidan mosini tanlab, unga havolani nusxalash va o'quvchilarga berish mumkin.

Biroq, boshqalarning vazifalarini tahrirlash va o'z vazifalaringizni yaratish uchun ro'yxatdan o'tishingiz kerak. Agar sizda Google hisobi bo'lsa, bu tom ma'noda bitta bosish bilan amalga oshiriladi. Agar yo'q bo'lsa, elektron pochta manzilini kiritish va parol o'ylab topish kerak bo'ladi.

Google Chromedan WordWall dasturiga kiramiz

Google akkaunt orqali ro'yxatdan o'tamiz



Зарегистрируйтесь и создайте базовый аккаунт.

Sign in with Google

или

Адрес электронной почты

Пароль
Текст должен содержать не менее 12 символов, включая букву и цифру.

Подтвердите пароль

Расположение
 Узбекистан

Я принимаю Условия использования, Политику конфиденциальности и Политику использования файлов cookie.

Зарегистрироваться

Ro'yxatdan o'tgandan so'ng, foydalanuvchilarga topshiriqlar uchun 10 ta shablon (ular haqida batafsil ma'lumot beramiz) va uchta shaxsiy mashqni yaratish imkoniyati mavjud - noldan yoki boshqalarning topshirig'ini tahrirlash orqali. Tayyor topshiriqlardan (o'ziniki yoki boshqalar tomonidan yaratilgan) cheklolrsiz foydalanish mumkin.

Bepul tarifdan tashqari, foydalanuvchilar uchun yana ikkita tarif mavjud. "Standart" oyiga 39000 so'm evaziga cheklanmagan miqdorda mashqlar yaratishni taklif qiladi. Shuningdek, tarifga chop etish uchun 16 ta maxsus shablon kiradi - masalan, krossvord yoki "Bo'sh joylarni to'ldir" topshirig'ini tayyorlash, PDF formatida saqlash, chop etish va o'quvchilarga tarqatish mumkin.

Individual plans School plans

Switch to Annual to get 12 months for the price of 9.

Pay Monthly Pay Annually 25% off

Basic	Standard	Pro
For getting started with Wordwall	For regular usage of our most popular templates	For unlimited access to the complete Wordwall suite
You are on this plan	39,000 so'm / month UZS	58,500 so'm / month UZS
Upgrade	Upgrade	Upgrade
<ul style="list-style-type: none"> ✓ Create up to 3 activities ✓ 12 activity templates ✓ Basic sharing options 	<ul style="list-style-type: none"> ✓ Access over 25 million teaching resources ✓ Create and edit unlimited activities ✓ Generate lesson content instantly with AI ✓ Boost engagement with timers, scoring and more ✓ Print for offline teaching 	<ul style="list-style-type: none"> ✓ Access over 25 million teaching resources ✓ Create and edit unlimited activities ✓ Generate lesson content instantly with AI ✓ Boost engagement with timers, scoring and more ✓ Print for offline teaching ✓ 22 additional templates to keep lessons fresh ✓ Exclusive early access to new templates

"Pro" tarif rejasi oyiga 58500 so'm turadi. Unda "Standart"dagi kabi hamma narsa mavjud, shuningdek, 15 ta yangi shablon qo'shilgan. Ular orasida haqiqiy o'yinlar ham bor. Masalan, "Labirintdagi quvish"da o'yinchi tomonidan boshqariladigan personaj maxluqlar bilan to'qnashuvdan qochib, savolga to'g'ri javob topishi kerak.

Barcha tariflar foydalanuvchilari istalgan shablonlar bilan tayyor mashqlardan foydalanishlari mumkin - agar "Hamjamiyat" sahifasida qidiruv satrida shablon

nomini kiritsangiz, xizmat u bo'yicha yaratilgan barcha vazifalarni ko'rsatadi. To'g'ri, faqat tarif rejangizga kiritilgan shablonli variantlarni tahrirlash mumkin.

Engage every student without hours of prep

Join over 9,000 schools who have transformed their classrooms using Wordwall.

Individual plans School plans


How many teachers?

1 2 3 up to 5 up to 10 up to 20 up to 50 More

<p>Standard</p> <p>1,684,800 SO'm</p> <p>per year - UZS</p> <p>5 users for the price of 4</p> <p>Select</p>	<p>Pro</p> <p>2,527,200 SO'm</p> <p>per year - UZS</p> <p>5 users for the price of 4</p> <p>Select</p>
--	---

Individual tariflardan tashqari, jamoa uchun variant ham mavjud - Wordwall'da bunday reja "Maktab" deb ataladi, ammo aslida undan har qanday hamkasblar guruhi foydalanishi mumkin. Bunday tarifni ulardan biri to'laydi, so'ngra maxsus havola orqali boshqa foydalanuvchilarni umumiy hisobga qo'shadi. Narx guruh tarifiga qo'shilganlar soniga bog'liq bo'ladi. Wordwall ishlab chiquvchilari "Maktab" tarifini bank o'tkazmasi orqali to'lashni taklif qilishadi, shuningdek, muqobil to'lov usuli kerak bo'lsa, help@wordwall.net elektron pochtaasiga murojaat qilish mumkinligini ta'kidlashadi.

Ushbu qo'llanmada bepul bazaviy tarifning imkoniyatlarini batafsil ko'rib chiqamiz. Wordwall'ning eng yaqin analogi - LearningApps xizmati (u haqida biz yuqorida aytib o'tgan edik). Ushbu vositalar o'xshash tamoyil asosida ishlaydi, ammo funkcionallik jihatidan ba'zi farqlar mavjud. Ushbu qo'llanmada Wordwall nima taklif qilishi va undan qanday foydalanish haqida ma'lumot berilgan. Ro'yxatdan o'tgandan so'ng shu oyna chiqadi bundan o'zimizni faoliyatimizni yaratishimiz mumkin



wordwall.net/uz/create/picktemplate

Wordwall Tezroq yaxshi darslarni yaratning

Hamjamiyat Mening faoliyatim Mening natijalarim **Faoliyatni yaratish** yangilash sodiqovaozo...

Namunani tanlang > Tarkibini kiriting > O'ynash


Namunalarni qidirish: Nomini yoki tavsifni kiriting...

Siz 3 resurslaringizning 2 ishlatdingiz


Saralash: **Tavsiya etilgan** Alifbo bo'yicha

- Anagramma**: So'z yoki iborani ochish uchun harflarni to'g'ri joylariga sudrab oling.
- G'ildirakni aylantirish**: Keyingi qaysi element kelishini ko'rish uchun g'ildirakni aylantiring.
- Oynani ochish**: Ularni ochish va ichkaridagi narsani ochish uchun har bir qutiga teging.
- O'chirish**: Har bir jumlaning to'g'ri tartibda joylashtirish uchun so'zlarni sudrab olib tashlang.
- Mos keladigan juftliklar**: Bir vaqtning o'zida bir juft kafel tegib, ular mos keladimi yoki yo'qligini aniqlash.
- Viktorina**: Ko'p tanlovli savollar qatori. Davom etish uchun to'g'ri javobni bosing.
- Guruh saralash**: Har bir elementni to'g'ri guruhga olib qo'ying.
- Tenglashtirish**: Har bir kalit so'zni uning ta'rifini yonida suruklang va qoldiring.
- Flesh-kartalar**: Old tomondan ko'rsatmalar va orqa tomondan javoblar bo'lgan kartalar yordamida o'zingizni sinab ko'ring.


Misol uchun g'ildirakni aylantirishni tanlaymiz



O'zimizni tayyorlayotgan fanimizga oid savollarni kiritib chiqamiz so'ngra tayyor tugmasini bosamiz




Tayyor bo'lgandan so'ng shu oyna chiqadi bu yaratgan matematik o'yinimiz mening faoliyatim bo'limida turadi.




Ekstrandagi o'ng tomondagi namunani almashtirish bo'limidan yaratgan o'yinimizni yana boshqa xohlagan o'yinga almashtirish mumkin.

Yaratgan ishimizni orqa fonlarini o'zgartirishimiz mumkin




Misol uchun yovvoyi g'arb fonini tanlaymiz




Shu bilan birinchi faoliyatimizni yaratdik.

Share tugmasi orqali yaratgan o'yinimizni boshqalarga ham ulashishimiz mumkin.



Chiqqan havola orqali o'yinni boshqalarga ham ulashamiz.



Xulosa qilib aytganda, Wordwall platformasi talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishda samarali raqamli vositalardan biri hisoblanadi. Ushbu platforma orqali yaratilgan interaktiv mashqlar talabalarning o'quv jarayonidagi faolligini oshiradi, ularning bilimlarni mustaqil o'zlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi va ta'lim samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, Wordwall platformasi o'qituvchilarga o'quv materiallarini interaktiv shaklda taqdim etish imkonini beradi. Bu esa zamonaviy ta'lim talablariga mos keladi hamda ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etishga yordam beradi. Kelgusida oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mustaqil ta'limini rivojlantirishda Wordwall kabi interaktiv platformalardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. **Oliy ta'limda raqamli transformatsiya konsepsiyasi.** – Toshkent, 2021.
2. Diana Laurillard **Teaching as a Design Science: Building Pedagogical Patterns for Learning and Technology.** – Routledge, 2019.
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A. **Ta'limda innovatsion texnologiyalar.** – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
4. John Hattie **Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement.** – Routledge, 2018.
5. Qodirov B.R. **Ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llash metodikasi.** – Toshkent: Innovatsiya, 2022.
6. Rasulov A., Karimov Sh. **Masofaviy ta'lim asoslari.** – Toshkent: Tafakkur, 2020.
7. Richard E. Mayer **Multimedia Learning.** – Cambridge University Press, 2021.
8. Tolipov O'., Usmonboyeva M. **Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari.** – Toshkent: Fan, 2018.
9. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. **Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish.** – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.